

Mazmundor va mohiyatli ochiq dars

Ochiq darslarning qachon va qayerda o'tkazilishi emas, balki uning teran tafakkur, chuqur ilmiy-nazariy hamda mantiqiy asosga ega ekanligi ahamiyatlidir. Xuddi shunday mazmunga ega bo'lgan ochiq dars haqida ma'lumot keltirib o'tish joiz.

Institutimizning "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida assistenti Mansurov Safar Raxmankulovichning "Suv oqimi ko'ndalang kesimi parametrlarini aniqlash. Chuqurlik o'lchash ma'lumotlarini qayta ishlash" mavzusidagi ochiq darsi 2019-yil 18-mart soat 10⁰⁰ da B-403 auditoriyasida "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti, "5450400 -Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish" yo'nalishi 2-kurs 201-guruh talabalariga o'tkazildi. Ochiq darsda ISMITI, katta ilmiy xodimi Ibragimov I. Yu., "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Mashg'ulot avvalida o'qituvchi talabalarga: O'qituvchi mavzuni e'lon qildi, mavzu bo'yicha tarqatma materiallar talabalarga tarqatildi. Dastlab chuqurlik o'lchash vazifalariga, Suv oqimining chuqurligi o'lchashdan maqsad, o'lchangan ma'lumotlar asosida natijalarni qayta ishlash, chuqurliklarni o'lchash uchun moslama va asboblarni, o'lchov asboblarning tasnifi va daryo o'zani ko'ndalang qirgimining asosiy morfometrik elementlari haqida batafsil tushuntirdi. Dars so'ngida mashg'ulotda faol ishtirok etganlikka qarab o'qituvchi har bir talabani baholab bordi. Amaliy mashg'ulot darsi talabalar va o'qituvchi o'rtasida o'zaro fikr-almashinib, savol-javob tarzida qiziqarli tarzda o'tkazildi.



"Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida assistenti Mansurov S. Axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov